MADANIYATLARARO MULOQOTDA NOVERBAL VOSITALARNING AHAMIYATI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
magistranti ***Usmonova Farangiz***

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniyatlararo muloqotda noverbal vositalarning ahamiyati, ularning milliy-madaniy xususiyatlari hamda ingliz va rus xalqlari muloqotidagi o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, noverbal vositalarning kommunikativ ma’nosi va ularni to‘g‘ri talqin qilishning samarali muloqotdagi o‘rni yoritiladi**.**

Kalit so‘zlar. madaniyatlararo muloqot, noverbal vositalar, lingvokulturologiya, imo-ishora, mimika, tana tili, milliy-madaniy xususiyatlar.

Inson muloqot qilganida nafaqat og‘zaki ma’lumotlarni tinglaydi, balki birbirining ko‘zlariga qarashni, ovoz, intonatsiya, yuz ifodalari, imo-ishoralarni sezadi. So‘zlar orqali ma’lumotlar mantiqan ifodalansa, imo-ishoralar, yuz ifodalari, ovoz bu ma’lumotlarni to‘ldirib keladi, ma’nosiga ma’no qo‘shadi. XX asr oxirida noverbal muloqot qilish bo‘yicha yangi ilmiy-ijtimoiymutaxassis degan kasb turi paydo bo‘ldi. U insonlarning turli xil joy va vaziyatlardagi noverbal muloqotlarini, paralingvistik signallarni kuzatadi, masalan, ishda, ko‘chada, televideniyada va boshqalar. Bundan tashqari u odamlarning hatti-harakatlarini va xulq- atvorlarni ham o‘rganadi. Bu orqali u insonlarning o‘zaro munosabatlarini qanday yaxshilash mumkin ekanligi tog‘risida tadqiqot olib boradi. Shunday qilib, noverbal kommunikatsiyaning asosiy jihatlari faqat 60-yillarning boshidan jiddiy o‘rganilishni boshladi, ommaga esa 1970- yilda Yuliy Fast o‘zining kitobini e’lon qilganidan keyingina ma’lum bo‘ldi. Ushbu kitobda 1970- yilgacha olimlar tomonidan qilingan noverbal muloqotning muhim jihatlari bo‘yicha tadqiqotlari sarhisob qilindi va ommaga taqdim etildi. Albert Meyerabian kuzatuvlari natijasihuni ko‘rsatdiki, inson ma’lumotlarni verbal vositalar yordamida 7% (faqat so‘zlar bilan), ovoz orqali (ovoz toni, intonatsiya) 38 foiz va noverbal vositalar yordamida esa 55 foiz bayon etadi. Professor

Berdvisllning tadqiqot natijasiga ko‘ra esa, bir kishi so‘z bilan kuniga o‘rtacha hisobda 10-11 daqiqa gapiradi va har bir jumla o‘rtacha 2,5 soniyadan oshmaydi.

Noverbal vositalar deganda jestlar (tana, qo‘l harakatlari), imo-ishoralar (mimika), tegish(qo‘l tegizish, quchoqlash, silash, o‘pish va boshqalar) tana holati, kishilar orasidagi masofa kabilar tushuniladi.

Noverbal vositalar fikr ifodalashda eng sodda, eng tejamli vositalar hisoblanadi. Bunday vositalar ma’lum bir xabar tashishda verbal vositalarga yordam beradi, ba’zi o‘rinlarda hatto verbal vositalar vazifasini ham bajaradi. Noverbal muloqot vositalarini to‘g‘ri talqin qilish, ularni o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Noverbal vositalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat;

Kinesika - imo-ishora, yuz ifodasi va tana harakatlari.

Mimika - yuz mushaklari orqali hissiyotlarni ifodalash.

Okulesika - ko‘z qarashi va nigoh orqali ma’no ifodalash.

Proksemika - muloqot jarayonida suhbatdoshlar orasidagi masofa.

Takestika (haptika) - teginish orqali munosabat bildirish.

Paralingvistika - ovoz balandligi, ohang, nutq sur’ati va pauza kabi vositalar.

Bu vositalarning ayrimlari turli xalqlarda o‘xshash ma’nolarni anglatsa, boshqalari milliy madaniyat, urf-odat va muloqot me’yorlariga qarab farqlanishi mumkin.

O‘zbeklarda aloqa-aralashuv jarayonida qadimdan tarkib topgan va ishlatilib kelinayotgan muomala shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1.*Rituallar(udumlar*) – urf-odat bilan bog’liq xatti-xarakatlar va ularning yig’indisi.

2.*Etiket* formalari(adab shakllari) – muomala jarayonidagi odob qoidalari.

3.*Imo-ishoralar* – aloqa-aralashuvda ma’lum axborot uzatuvchi harakatlar.

Udumlar milliy-hududiy xususiyatlarga ega bo’lib, ma’lim xalqning urf-odatlarini ifoda etadi**.** Bu urf-odatlar shaxsning qo’l, bosh, gavda harakatlari bilan, yuzdagi turli o’zgarishlar hamda boshqa holat va harakatlar orqali amalga oshiriladi. “Fotiha qilmoq” (duo qilmoq) diniy mazmun kasb etuvchi urf-odat hisoblanib, o’zbeklarda arab istilosidan so’ng islom dini bilan birga tilovatdan so’ng bajariladigan harakat sifatida kirib

kelgan. Bu harakat duoning yakunida qo'llarni ochiq holda yuzga tomon yuqoridan pastga harakat etish bilan bajariladi va "omin" so'zi aytiladi:

– Voy, tilingizdan o'rgilay, ovsinjon! Koshkiydi-ya|! – To'xtavoyning onasi yig'lamsirab **yuziga fotiha tortdi**. – Iloyo aytganingiz kelsin!

Adab shakllari muomala jarayonining atributi hisoblanadi. Insonlar o'rtasidagi munosabatda har bir xalq yoki elatlar muomalasida ishlatiluvchi kishi harakatlari odob qoidalari hisoblanadi. Etiket butun xulqimizni ko'rsatib beradi. Bu biz stol atrofida yoki mehmonxonada o'zimizni qanday tutishimiz emas, balki u bizning barcha munosabatlarimizning belgilangan normasidir.

Nutqiy etiket tarixan jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan ma'lum xatti-harakatlar bilan parallel olib boriladi. Salomlashishda "Assalomu alaykum" so'zi o'ng qo'lni chap ko'krakka qo'yish va boshni o'ng tomonga xiyol burgan holda pastga egish bilan kuzatib boriladi.

Hatto jo'raboshimiz ham Ermon buvani ko'rishi bilan yuvosh tortib qoladi, **ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:**

– **Assalomu alaykum**, buvajon, deb salom – beradi.

–Vaalaykum assalom, mullo bo'ling, tasadduq, – deydi Ermon buva salmoqlab.

. **Ishoralar** (jestlar) o'zbek aloqa aralashuvida ishlatiluvchi vositalardan biridir. Inson so'zlashuv jarayonida o'z fikrini imkon qadar tez, qisqa vaqt ichida, nutq organlarini kam ishlatgan holda, tushunarli, ta'sirchan, bo'yoqdor qilib yetkazishga harakat qiladi. Shu o'rinda fikr almashuvda ishoralar ahamiyatli sanaladi.

O'zbeklar aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi ishoralar kishining ma'lum organlari(bosh, qo'l, yelka, ko'z, qosh, yuz, oyoq va b.) harakati orqali ifodalanadi va o'zbek so'zlashuv jarayonining bir qismi sanaladi.

Nutqiy vaziyatga bog'liq holda qo'l harakati bilan bog'liq paralingvistik vositalar ham turli xil ma'no nozikliklarini ifodalashi mumkin.

Ayrim paralingvistik vositalar ma'lum bir xalqning muomala qoidalari bilan bog'liqdir. Jumladan, duo qilish, ta'zim qilish, qo'l qovushtirish, qo'lini ko'ksiga qo'yish o'zbeklar muloqot jarayonida juda faol qo'llanadi.

Qo’lini ko’ksiga qo’ymoq. O’zbek millatining urfi sanalmish – qo’lini ko’ksiga qo’ymoq suhbatdoshiga nisbatan hurmat ma’nosini bildiradi.

– Qani uyga, – dedi dadam **qo’lini ko’ksiga qo’yib**. – Bir piyola choyimiz bor.

Ushbu parchada qo’lini ko’ksiga qo’ymoq paralingvistik vositasi suhbatdoshga nisbatan hurmat, kamtarlik va tavoze ma’nolarini ifodalamoqda.

Bundan tashqari o’zbeklar madaniyatida o’ng qo’lni ko’ksiga qo’yib kechirim ham so’raladi:

”... Toshpo’lat dadasi bilan tomdan g’o’zapoya tushirib, endi ovqatga o’tirishgan edi domla hamroyev kirib qoldi. Shuncha qistashsa ham ovqatdan bir ikki cho’qigan bo’ldi-yu, yemadi.

– Siz jo’ra bahuzur, – dedi **qo’lini ko’ksiga qo’yib**. – Hozir ovqat yeb edim.” **Qo’lini paxsa qildi** iborasi g’azab vajohat ichida qo’lini silkib(qilichga, xanjarga o’xshatib) gapirish ma’nosida qo’llanadi. Paxsa so’zi qalin devor ma’nosida bo’lib, loy(paxsa) urilganda qavat-qavat qilib uriladi. Qo’lning g’azab bilanuzatilgan holda baland-past yurishi paxsa qavatlarga o’xshatiladi. Bu kabi o’xshatish va metaforalarda ham xalqchillik o’z ifodasini topadi.

Qo’shqo’llab, qo’lni qisib salomlashish. Qo‘l uzatib, qo‘lni qisib, qo‘shqo‘llab salomlashish o‘zbek muloqot xulqida erkaklarga xos noverbal vosita hisoblanadi. Erkaklarning erkaklar bilan qo‘l berib so‘rashish odati qadim zamonlardan beri sayqallanib kelgan. Erkak kishilar uchrashib qolganlarida bir-birlariga yaqinlashib kelish asnosida keksa yoki o‘rta yoshdagi kishilar “assalomu alaykum”ni to‘liq aytib, har ikkala tomon ikkala qo‘llarining kaftlarini bir-birlariga birlashtirib, bir necha marta yengil siltab qo‘yadi. Bu ko‘rishuvchilarning bir-birlariga juda qadrdon ekanligini yoki samimiy hurmati zo‘rligini ifodalovchi, quyuq salomlashishning faqat erkaklarga xos shaklidir.

Ingliz xalqi haqida so‘z yuritganda, quyidagi misollar, asosan, Britaniya, xususan, ingliz madaniyatidagi muloqot me’yorlariga taalluqli ekanini hisobga olish kerak. Barcha inglizlar bir xil imo-ishora yoki muloqot uslubidan foydalanadi, deb bo‘lmaydi.

Tabassum - *smile*

Ikki kishi uchrashganda biri ikkinchisiga tabassum qiladi.

“Good morning!” — “Xayrli tong!-”suhbatdosh tabassum bilan javob qaytaradi.

Britaniya muloqotida tabassum samimiylik, xushmuomalalik yoki do‘stona munosabatni ifodalashi mumkin. Biroq tabassum har doim ham chuqur xursandchilikni anglatmaydi. Ayrim vaziyatlarda u noqulaylikni yumshatish yoki odob yuzasidan munosabat bildirish vazifasini bajaradi.

Maria A. Arapovaning tadqiqotida tabassumning rus, Yevropa va Amerika madaniyatlarida qo‘llanishi hamda talqinidagi farqlar o‘rganilgan. Muallif tabassumning ma’nosi faqat yuz ifodasiga emas, balki madaniy va kommunikativ vaziyatga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi

Burunga ishora qilish - *tapping the side of one’s nose*

Bir kishi suhbatdoshiga ko‘rsatkich barmog‘i bilan burnining yon tomoniga ishora qiladi. Ayrim Britaniya kommunikativ vaziyatlarida bu imo-ishora sir saqlash, maxfiy ma’lumot yoki oshkor qilinmasligi kerak bo‘lgan narsaga ishora qilishi mumkin.

Masalan, ikki tanish biror voqeani boshqalardan yashirish haqida gaplashayotganida, ulardan biri burnining yon tomoniga ishora qilishi mumkin. Biroq bu imo-ishoraning ma’nosi kontekstga bog‘liq. Uni barcha inglizlar bir xil tushunadi, deb hisoblash to‘g‘ri emas.

V belgisi — *V-sign*

Adresat ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini V shaklida ko‘rsatadi. Bu imo-ishoraning ma’nosi kaftning qaysi tomonga qaratilganiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Britaniya madaniyatida kaft tashqariga qaratilgan V belgisi ko‘pincha g‘alaba yoki tinchlikni anglatadi. Kaft ichkariga qaratilgan holati esa ayrim vaziyatlarda haqoratli ma’noga ega.

Rus xalqidagi bir necha noverbal vositalar ham o‘ziga xosligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Misol qilib keltiradigan bo‘lsak:**peshonaga kaftni tekkizish** — прикосновение ладонью ко лбу

Biror kishi muhim bir narsani unutib qo‘yganini eslab, kaftini peshonasiga tekkizadi.

Bunday harakat hayrat, unutuvchanlik, afsuslanish yoki o‘zidan norozilikni ifodalashi mumkin.

Masalan:

— Я совсем забыл о встрече!

— “Uchrashuvni butunlay unutibman!”

Bu gap peshonaga kaftni tekkizish harakati bilan birga aytilsa, afsuslanish yoki o‘z xatosini anglash ma’nosi kuchayishi mumkin.

Rus, tatar va arab madaniyatlaridagi imo-ishoralarni qiyoslagan tadqiqotda peshonaga kaftni tekkizish rus va tatar madaniyatlarida unutish, hayrat yoki afsuslanish bilan bog‘liq ma’nolarda qo‘llanishi qayd etilgan

Qoshlarni chimirish *хмурить брови*

Suhbatdosh tushunarsiz yoki ishonchsiz ma’lumotni eshitib, qoshlarini chimiradi.Bu mimik vosita quyidagi ma’nolarni ifodalashi mumkin bo‘ladi.

norozilik;

shubha;

jiddiy fikrlash;

tushunmovchilik.

Masalan:

— Он сказал, что всё уже готово.

— “U hammasi tayyorligini aytdi”.

Bu holatda mimika verbal axborotga qo‘shimcha ma’no beradi. Biroq qosh chimirishning o‘zi shubhani qat’iy isbotlamaydi; u charchoq yoki diqqatni jamlashni ham ifodalashi mumkin.

Qo‘l berib ko‘rishish — *рукопожатие*

Misol:

— Здравствуйте!

— Здравствуйте!.

Rus muloqotida qo‘l berib ko‘rishish salomlashish, xayrlashish yoki rasmiy uchrashuvni boshlash vositasi bo‘lishi mumkin.

Bu harakat bilan ruslar salomlashish va muloqotni boshlashni ifodalaydi. Qo‘l berib ko‘rishish ko‘plab madaniyatlarda uchrasa-da, uning qachon, kim bilan va qanday shaklda bajarilishi milliy hamda ijtimoiy me’yorlarga qarab farqlanishi mumkin.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, noverbal vositalar barcha mamlakatlarda deyarli o’xshash bo’lib, har bir millatning madaniyati, milliy xarakteri, urf-odatlari va qadriyatlari ta’sirida ma’lum ko’rinishda namoyon bo’ladi. Ularni bilish, barcha xalqlarning madaniyatiga birdek qiziqish, boshqa millat vakillari bilan muloqot jarayonida turli xil tushunmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Paralingvistik vositalarni bilish bu boshqa davlatlar bilan madaniy aloqalarni yaxshi yo’lga qo’yishga, o’zaro bir-birlarini yaxshi tushunishga, tarjima ishlarini sifatini ko’tarishga, kishilarning dunyo xalqlari urf odatlari, hayotiy tajribalarini atroflicha bilishga, inson madaniy saviyasining ko’tarilishi, xalqlar haqidagi tasavvurlarning kengayishi, tilshunoslikning boshqa fanlar orasidagi o’rnini, qimmatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Abdurazzakov, Y., & Abdurazzakova, M. (2022). USE OF NON-STANDARD FORMS AND METHODS IN A FOREIGN LANGUAGE LESSON. Gospodarka I Innowacje., 24, 1003-1010.

2. Asmus, N.G. Linguistic Characteristics of the Virtual Communicative Field: Diss. Cand. of Philosophy: 10.02.19 [Text] / N.G. Asmus. - Chelyabinsk: ChelyabinskState University, 2005. — 265 p.

3. Saidxonov M. Aloqa aralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: ”Fan”, 2008.

4. 2. Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методический аспекты. М., 1982,с. 6.

5. . Муминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этган дис.автореф. – Тошкент:ЎзР ФА ТАИБ 2000.

6. Hoshimov O’. Dunyoning ishlari. – Toshkent:”Yangi asr avlodi”,2019.

7. Hoshimov O’. Sevgi qissalari. – Toshkent: ”O’zbekiston”, 2013.

8. Hoshimov O’. Ikki karra ikki besh. – Toshkent:”O’qituvchi”, 2018.